


ISSN 3030-3370

№ 3-4 (6) 2024



# AYNY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL  
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL



**ISSN 3030-3370**

**“AYNIY VORISLARI”**  
xalqaro elektron jurnal

**«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»**  
международный электронный  
журнал

**“AYNIY’S SUCCESSORS”**  
international electronic journal

**№ 3-4 (6) 2024**

**TAHRIR HAY'ATI:**

**BOSH MUHARRIR**

**OBIDJON XAMIDOV,**  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

**DILRABO QUVVATOVA,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

**MAS'UL KOTIB**

**NAFOSAT O'ROQOVA,**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)  
**IBODULLA MIRZAYEV,**  
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**DARMONOY O'RAYERVA,**  
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**NURBOY JABBOROV,**  
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**NURALI NUROV,**  
filologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)

**SALIMA MIRZAYEVA,**  
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**SHAVKAT HASANOV,**  
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**NURETTIN DEMIR,**  
Pr. Dok. (Turkija)

**ALFIYA YUSUPOVA,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (Rossiya)

**FUNDA TOPRAK,**  
Pr. Dok. (Turkija)

**G'AYRAT MURODOV,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

**SHOIRA AXMEDOVA,**  
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**MEHRINISO ABUZALOVA,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

**GULCHEHRA IMOMOVA,**  
filologiya fanlari doktori (DSc) (O'zbekiston)

**DILSHOD RAJABOV,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

**HUSNIDDIN ESHONQULOV,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

**MA'RIFAT RAJABOVA,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

**QAHRAMON TO'XSANOV,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

**ZUBAYDULLO RASULOV,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

**MAQSUD ASADOV,**

**TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI**

*Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,  
Buxoro davlat universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori (DSc)  
(O'zbekiston)*

*E-mail: [yuldasheva21dilorom@gmail.com](mailto:yuldasheva21dilorom@gmail.com)*

*Hamidova Mohizoda G'uulomovna,  
BuxDU filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili  
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi  
(O'zbekiston)*

*E-mail: [mohizodahamidova6@gmail.com](mailto:mohizodahamidova6@gmail.com)*

**SAID AHMADNING "QORAKO'Z MAJNUN" HIKOYASI LINGVOPSIXOLOGIK  
TAHLILI**

**Annotatsiya.** Keyingi yillarda til tizimiga antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida yondashilib, o'zbek tiliga xos konsept va konseptosferalar doirasida olib borilgan tadqiqotlarda tilimizning milliy tabiatи atroficha tahlil qilinmoqda. Bu borada tilga tizim sifatida yondashish, uni kognitiv-pragmatik, sotsiopragmatik, sotsiolingvistik, lingvomadaniy, lingvoma'naviy, lingvopravmatik, psixolingvistik yo'nalishdagi izlanishlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

**Kalit so'zlar:** antropotsentrik paradigmа, lisoniy ong, lingvopsixologik tahlil, til, ruhiyat, nutq

**Аннотация.** В последние годы научные подходы к языковой системе базируются на основе принципов антропоцентрической парадигмы, а национальная природа нашего языка всесторонне анализировалась в исследованиях, проводимых в рамках специфичных для узбекского языка концептов и концептосфер. В связи с этим уместно подойти к языку как к системе, расширить рамки его когнитивно-прагматического, социопрагматического, социолингвистического, лингвокультурологического, лингводуховного, лингвопрагматического, психолингвистического исследования.

**Ключевые слова:** антропоцентрическая парадигма, языковое сознание, лингвопсихологический анализ, язык, дух, речь

**Abstract.** In recent years, the language system has been approached on the basis of the principles of the anthropocentric paradigm, and the national nature of our language has been comprehensively analyzed in studies conducted within the framework of concepts and concept spheres specific to the Uzbek language.

**Key words:** anthropocentric paradigm, linguistic consciousness, linguopsychological analysis, language, spirit, speech

**Kirish.** O'zbek tilidagi badiiy manbalar asosida olamning lisoniy manzarasi, lisoniy ong va tafakkur doirasida olamning badiiy tasviri, konsept va uning tarkibi, tilga olamni modellashtirish omili sifatida qarash, olam manzarasida zamon va makon kategoriyalari, o'zbek tilida so'zlashuvchilar ongida aks etgan olam manzarasi, yaratuvchi sifatida insonning dunyoni va o'z-o'zini anglashi kabilarni o'zaro aloqadorlikda, uzyiylikda atroficha tadqiq etish ham tilimizning milliy-madaniy yuksalishiga xizmat qila oladi. Zero, jamiyat taraqqiyotida tilning ahamiyati qanchalik muhim bo'lsa, uning tadqiqi, asrab avaylanishi, boyitib borilishi ham shunchalik muhim.

Tilimizning imkoniyatlari nihoyatda kengligini ulug' ajdodlarimiz takror-takror isbotlashgan. Buni Abdulla Qahhorchasiga umumlashtirib aytganda: "Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo'lmaydigan fikr, tuyg'u, holat yo'ql" [1, 4]. Demak, boy va imkoniyatlari keng o'zbek tilida asar yaratayotgan har bir ijodkor badiiy nutqida shu imkoniyatlardan chiroyli va mohirona foydalana olishi zarurki, bu, bir tomonidan, yaratilgan badiiy asarning yashovchanligini ta'minlasa, ikkinchi tomonidan, til boyligini nafis latofati bilan namoyon etishga erishadi.

**Asosiy qism.** Yozuvchi Said Ahmad ana shunday o‘z ona tilisi imkoniyatlardan mohirona foydalana olganligi bois o‘zbek adabiyoti rivojiga sezilarli hissa qo‘sghan ijodkorlardan biri ekanligi ma’lum. Ijodkorning “Qorako‘z majnun” hikoyasi matnida qo‘llanilgan til birliklari, albatta, uning boshqa janrda yozilgan asarlari tilidan ma’lum ma’noda farqlanadi. Hikoya mazmuni insonning lisoniy ongiga bevosita ta’sir o’tkazadi.

Olimlarning fikricha, lisoniy ong muayyan til vakilining leksik va grammatik sath birliklari orqali olamni idrok etishi va anglashi jarayonini ifodalovchi kognitiv tilshunoslik kategoriyasi hisoblanadi. Jumladan, T.N.Ushakovaning ta’kidicha, “lisoniy ong” atamasi ikkita alohida, lekin bir-biriga aloqador bo‘lgan psixologiya va tilshunoslik sohalariga oid tushunchalarni ifodalovchi, birlashtiruvchi so‘zlardan tashkil topgan birikmadir [3, 21]. Darhaqiqat, inson o‘z nutqi orqali muayyan fikrni ifodalar ekan, albatta, tilning verbal va noverbal vositalaridan unumli foydalanadi va, ayni paytda, bu jarayon uning ruhiy olami bilan ham bog‘lanadi. Zero, biror nutqiy jarayon yo‘qki, u kommunikantning ruhiy dunyosi in’ikosi sifatida yuzaga chiqmasa. Demak, shu o‘rinda ta’kidlash joizki, gap hamisha til va nutq dixatomiyasi haqidagina emas, balki *til~ruhiyat~nutq* trixotomiyasi to‘g‘risida borishi zarur. Ruhiy ongsiz til mavjud bo‘lmaganidek, insonning ruhiy olami ham tilsiz bo‘m-bo‘sh bo‘lib qolaverishini idrok etsak, mazkur holat lingvopsixologiya yo‘nalishining asosiy xususiyati ekanligini anglashimizga ko‘maklashadi. Bu esa biz uchun lisoniy ong tushunchasining mohiyatini reallashtiradi.

Zero, lisoniy ong psixolingvistikada keng qo‘llaniluvchi atama sifatida mental faoliyat natijasi, milliy til leksik vositalari orqali ifodalanadigan hodisani belgilovchi tushunchani anglatishi ko‘zda tutiladi. Keng ma’noda lisoniy ong tushunchasi inson nutqiy faoliyatini ta’minlovchi ruhiy mexanizmni ham o‘z ichiga oladi.

Istalgan voqelikning har bir shaxs tomonidan o‘z tafakkur imkoniyati doirasida “hazm qilinishi” va shu voqelikka shaxsnинг munosabati jarayoni [4, 171-172] bo‘lgan lisoniy ong tushunchasi milliylik o‘zlik, milliy madaniyat, milliy ma’naviyat masalalari bilan chambarchas bog‘lanadi. Buni Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasi misolida tahlilga tortamiz.

Aytish joizki, O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmadning ijodiy merosida uch yuzdan ortiq hikoyalari bor. Uning hikoyalari professor Laziz Qayumov ta’kidlaganidek: “...Oybekning psixologik tasvir mahorati, G‘afur G‘ulom yunori, Abdulla Qahhor bayonidagi ixchamlik ko‘zga tashlanadi” [2, 309-310]. Said Ahmad hikoyalarda lisoniy vositalarni qahramonlar nutqida to‘laqonli aks ettirishga, verbal vositalardan unumli foydalanish orqali badiiy tasvirlarning xilma-xilligiga erishishga, qahramonlar nutqida xalq tili jozibasini saqlab qolishga, muayyan voqelikni aks ettirishda emotsional bo‘yoq dor so‘zlar, o‘xshatish, ibora, metaforik, metonimik birliklardan o‘rinli va maromida foydalanishga harakat qilganligini kuzatamiz. Shu o‘rinda, ijodkorning “Qorako‘z majnun” hikoyasi moybo‘yoqda chizilgan ajoyib san‘at asarini eslatadi.

**Natijalar va muhokama.** Hikoyaning g‘oyasiga “o‘z tili, dini, ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, kindik qoni tomgan go‘shaga sadoqati bo‘lmagan farzanddan eshigingdag‘i vafodor it afzalroq” degan mazmun singdirilgan. Hikoya mazmuni kitobxonga “*o‘ris shaharlarida daydib qolib ketgan*” o‘g‘il Bo‘rixon va “*baxti ochilmay, guldek umri xazon bo‘layotgan*”, ya’ni “*ikki bor turmush qilib, farzand ko‘rmay, qaytib kelgan*” Qumrining, shuningdek, “*domda yashaydigan, itdan hazar qiladigan*” Dilbar opaning onasi Saodat aya kechinmalari bilan bog‘liq tarzda yetkaziladi. Saodat ayaning yana “ikkiasi Toshkentda, bittasi Chirchiqda, ikkitasi Qibrayda yashaydi”gan farzandlari ham bor. Choli usta Turob bundan uch yil oldin olamdan o‘tgani.

Saodat aya – pokdamon, oriyatli, yoshi saksonga yaqinlashib qolgan oddiy, mehribon o‘zbek ayoli. U Toshkentda yashayotgan ikkita, Chirchiqdagi bitta va Qibrayda uy-joy qurgan ikkita, ya’ni besh farzandi va ularning oilalaridan “ko‘ngli to‘q”. Kampir turmushi bo‘lmay ota uyiga qaytgan qizi Qumrining baxtini namozlarida, duolarida yaratgandan so‘rab yashaydi. Onalar shunaqa, baxti chopmagan bolasi bilan birga bo‘ladi. Har bir ona baxti chopmagan, ishi yurishmagan yoki biror bir dardga chalingan farzandining oldida bo‘ladi. Dardiga sherik, hattoki darmon ham bo‘la oladi. Chunki bu hayotda minnatsiz doimo yoningizda bo‘ladigan yagona inson ona hisoblanadi. Ammo hikoyada asosiysi bu emas. Saodat ayaning “Na yotishida, na turishida halovat bor. O‘g‘lini o‘ylagani o‘ylagan. Yoshi saksonga yaqinlashib, kuch-quvvatdan qola boshlagan, bolamni ko‘rmay o‘lib ketamanmi, deb kuyib-yonadi”. Shu o‘rinda, yozuvchi Saodat ayan qiyayotgan eng katta “dard”ni ro‘y-rost (“Uning o‘g‘li

Bo‘rixon bundan o‘ttiz ikki yil oldin armiyaga ketib, o‘sha yerda rus xotinga uylanib qolib ketgan. U nafaqat ota-onasi-yu ukalari, balki tilini ham, yurtini ham unutgan, dinini sotgan” deya) aytib qo‘ya qolmaydi.

Birgina “Na yotishida, na turishida halovat bor” degan inkor munosabatlari sodda gap orqali kampirning ruhiy holatini, yashash tarzini bor bo‘y-basti bilan aniq ifodalab beradi. Hikoyadagi “o‘g‘lini o‘ylagani o‘ylagan”, “bolamni ko‘rmay o‘lib ketamanmi” kabi gaplarning xalqona ohang bilan aytilishi har qanday kishi qalbiga tez ta’sir etadi.

Yozuvchi har qanday mehr, muhabbatdan mosuvo Bo‘rixonning o‘ttiz ikki yil deganda ota uyiga shunchaki kirib kelishini onasi uchun “Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini tarqatadigan, ko‘ksidan tog‘dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan olamshumul bir yangilik” deb tasvirlaydi. Tasvir tarkibidagi “qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini tarqatadigan”, “ko‘ksidan tog‘dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan” kabi o‘xshatish ma’nosini beruvchi iboralar orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan sevinish, ruhiy entikishlarni yanada yorqinroq, ta‘sirchanroq ifodalashga erishadi. Ma’lumki, turli psixolingistik axborotlar, so‘zlovchi tomonidan so‘z, so‘z birikmasi, gap va matnlar orqali bayon qilinadi. Har bir so‘zdagi kontseptual ma’noni o‘zgartirgan holdagi yashirin mazmun so‘zlovchining olam, odamlar, atrofdagi voqelik, qalbdagi ruhiy tug‘yon kabilarni anglashdagi dunyoqarashidan paydo bo‘ladi. Zotan, so‘zdagi yashirin ma’nolar so‘zlovchining atrofdagi dunyo, narsa-hodisalar xususiyatlarini bilishiga asoslanadi.

Kampirning o‘g‘li bilan uzoq ayriliqdan keyingi uchrashuvi har qanday kitobxonni befarg qoldirmaydi. O‘sha o‘rinda “mast-alast”lik haqida gap boradi. Yozuvchi bu birlik orqali omonimik munosabatni yuzaga keltiradi. Jumladan,

“Undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi.” Demak, yoshi oltmishlardan oshgan Bo‘rixonning aroq ichib, mast yurishi uning o‘zi uchun tabiiy holga, to‘g‘rirog‘i, tur mush tarziga aylangan. Hikoya davomida kitobxon ko‘z o‘ngida oqko‘ngil, namozxon, hatto itini ham farzandiday qadrlaydigan Saodat ayaning salkam qirq yildan beri entikib kutgani shu “nusxa” ekanligi kishida ezg‘in kayfiyat uyg‘otadi. Ayni paytda, kampir o‘g‘lidan “aroq hidi kelayotgani”ni sezmasdi. Saodat aya “g‘oyibining hozir bo‘lganidan mast-alast edi. Karaxt edi, baxtiyor edi. O‘g‘lining boshlariga, yelkalariga ko‘z yoshlari to‘kilardi”.

Ijodkoming mahorati shundaki, Bo‘rixonning mast holati o‘quvchida salbiy qarashni yuzaga keltirsa, Saodat ayaning “g‘oyibining hozir bo‘lganidan mast-alast”ligi kitobxonga xayrixohlik kayfiyatini bag‘ishlaydi. Ayniqsa, shu jumlada “Bo‘rixon”, “o‘g‘li”, “farzandi”, “nuri diydasi”, “kutgani” birlklari o‘rnida “g‘oyibi” so‘zshaklining qo‘llanilishi obrazlilik, tasviriylikning kuchaytirilishini ta‘minlay organ.

“O‘zbek tilining izohli lug‘atida “g‘oyib” so‘ziga shunday izoh berilgan:

**1 G‘oyib** [arab tilidan olingen – mavjud, bor bo‘lмаган; yashirin, pinphoniy; ko‘rinmas] Shu yerda yo‘q, mavjuq emas; ko‘rimmay ketgan, yo‘q bo‘lib ketgan ma’nolarini beradi: *Shu paytda bir kabutar ajoyib, Ko‘kda borar goh ko‘rinib, goh g‘oyib.* S.Abdulla, Tohir va Zuhra.

**2 Tangri, iloh Anvarga raqiblikni oshkor qilib qo‘ymasligini g‘oyibdan tiladi.** Sh.Xolmirzayev, Qil ko‘priq [5, 453].

Fikrimizcha, ijodkor kampirning o‘g‘li bilan ko‘rishuvini “G‘oyibining hozir bo‘lganidan mast-alast edi” shaklida ifodalashi, birinchi tomonidan, “ko‘rinmay ketgan, yo‘q bo‘lib ketgani”ning ma’nosini bersa, ikkinchi tomonidan, kampir onaning o‘sha paytdagi ruhiy holati uchun “g‘oyibi” – ilohini ko‘rish bilan barobar degan mantiqni voqelantiradi.

Bilamizki, har qanday so‘z o‘z qurshovidan chiqsa, boshqa maqsadda maxsus qo‘llanilsa, ekspressivlik yuzaga keladi. Asar tarkibida qahramonlar xarakterini ochishga xizmat qiluvchi bir qator emotsiyal-ekspressiv so‘zlar qo‘llanilgan. Xususan, *otlamoq, irg‘ishlamoq, javramoq, serraymoq, baqraymoq, sapchimoq, o‘tli-shudli, errayim, betole, sho‘rlik* va h.

Hikoyaning jonli chiqishida iboralarning ham alohida o‘rni bor. Jumladan,

1) Saodat ayaga nisbatan qo‘llanilgan iboralar: *sochlari taqimini o‘pgan, sochi yelkalarini tutib ketmoq, qon bo‘lib ketmoq, otlanib qolmoq, borgan joyida ham halovat topmaslik, yer yorilmadi-yu, kirib ketmadi, birovga so‘zini bermaydigan, shoxi sinmoq, chilla o‘tirmoq, tili(m) og‘zi(m)ga sig‘may qolmoq, bir balo bo‘lib qolmoq, nadomat chekmoq, uyini bo‘ri yeb ketmoq, qalbida qalashib yotgan, ko‘ksidan*

*tog‘dek bosib yotgan, armonlarni ushatadigan, yuragi hapqirib ketmoq, diligiga yorug‘lik tushmoq, bag‘ri to‘lmoq, bag‘ridan bo‘schatmoq, hushini yig‘moq, ko‘zi tinmoq, ichi to‘la muz, arvohi shod bo‘lmoq, go‘rida tinch yotmoq, ichidagi muz erimay, jon bermoq*

2) Bo‘rixonga nisbatan qo‘llanilgan iboralar: *xudodan insof tilamoq, daragi topilmoq, ishlari besh, yelka qismoq, adoyi tamom bo‘lmoq, nuqsi urmoq, o‘zbekligi qolmaslik, ko‘zini parda bosmoq, o‘zga e’tiqodning sig‘indisi, tilga olmaslik, xayolga bormoq, qahri qattiq*

3) Qumriga nisbatan qo‘llanilgan iboralar: *baxti ochilmagan, baxti chopmagan, guldek umri xazon bo‘layotgan, uygisi buzilmoq, ko‘zi tushmoq, ko‘ngli sezmoq, ichidan zil ketmoq, dardi ichida, gapini malol olmaslik, yuraklari ezilib ketmoq, qo‘l yubormoq*

4) Qorako‘z majnun(it)ga nisbatan qo‘llanilgan iboralar: *ta‘zirini yemoq, ko‘kragini qorga berib yotmoq, zo‘rlik qilmoqchi bo‘lish, qorasi ko‘rinmoq, xushxabar olib kelmoq, g‘ashlik qilmoq, o‘qdek otlib ketmoq, xayollariga sherik bo‘lgandek, tanbeh bermoq, quloq solmoq*

5) kampirning boshqa farzandlari va nevaralariga nisbatan qo‘llanilgan iboralar: *tirikchiligini bo‘yniga olmoq, xudoning zorini qilmoq, o‘tli-shudli, har ish qo‘lidan keladigan, daragini topmoq, yomon ko‘zdan asramoq, magnitafon jinnisi*

6) qo‘shnilarga nisbatan qo‘llanilgan iboralar: *xabar topmoq, pichoq tortmoq, hafsalasi pir bo‘lmoq*

Nutq tarkibida pragmatik maqsadni amalga oshirish uchun qo‘llanilgan mazkur til birliklari so‘zlashuv tilining haqqoniy tabiatini ko‘rsatish bilan birga o‘zbekona milliy ruhiyat tasviri ifodasini ta‘minlashga ham xizmat qilmoqda. Ajratmalarimiz orasida *o‘zbekligi qolmaslik, o‘zga e’tiqodning sig‘indisi, ichi to‘la muz, xayollariga sherik bo‘lmoq* kabi okkozional iboralar ham uchraydiki, ular personajlar nutqi yoki ruhiy holatining ta‘sirchanligini ta‘minlash uchun xizmat qilgan.

Yuqorida ajratilgan aksariyat iboralarda milliy o‘ziga xoslik bor. Milliy o‘ziga xoslik shundaki, u yoki bu iboraning ma’nosini biror holat bilan bog‘liq tarzda yuzaga kelsa-da, ulardagi ko‘chma ma’no tamoman boshqa tushuncha bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan,

Saodat ayaning o‘tli-shudli, har ish qo‘lidan keladigan nevarasi Anvarjon tog‘asini izlab ketib yigirma kun deganda buvisiga xabar olib keladi va qo‘shni kampirlar oldida buvisiga “*Buvijon, tashvishlanmang, tog‘amning ishlari “besh”,* deydi. Odatda, *ishlari “besh”* iborasi ishlari yurishgan, hammasi yaxshi degan ma‘nolarni ifodalaydi. Ammo Anvarjonning Bo‘rixon tog‘asi va uning turmush tarzi haqida aytgan gaplari “*Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sinishi*”ga, “*ostoni hatlamay uyda muqim o‘tirib qolishi*”ga sabab bo‘ladi. (Chunki Bo‘rixonning u yerdagi nomi “dyadya Borya” bo‘lib, o‘zi o‘zbekchani esidan chiqarib yuborgan, jiyani bilan ham o‘rischa gaplashgan. Bitta sog‘in echkisi, to‘rtta qanor qopdek cho‘chqasi, o‘ntacha cho‘chqachalarini bor ekan. Qish zabitiga olganda shu mollarini ham uyiga opkirib olisharkan. Bo‘chka-bo‘chka samogon-aroq yasab, qishi bilan ichisharkan.)

Hikoyada Bo‘rixonning “u yoqdagi” hayoti yosh, jo‘shqin tabiatli nevara Anvarjonning tilidan bayon etiladi. O‘ttiz ikki yildan beri farzandining qaytishini kutayotgan Saodat ayaning dardi o‘ziga ma‘lum edi. Nevarasining tog‘asi haqidagi “xushxabar”ni qo‘shni kampirlar oldida aytishi kampirning ham nomusini bukdi, ham bir dardini ikki qildi. Saodat ayaning nevarasiga – so‘zlovchining axborot yetkazish vaziyati va o‘rnini, nutqiy sharoitni inobatga olmaganligiga – nisbatan munosabati “Bolasi tushmagur-ey, qo‘shni xotinlarning oldida shu gaplarni aytib o‘tiribdi-ya!” degan jumla orqali ifodalanadi. Bu Saodat ayaning yumshoq ko‘ngil ekanligidan, bolajonligidan, kechiruvchanligidan dalolat beradi.

O‘zbek milliy mentalitetida yoshi oltmishga yaqinlashgan yoki oltmishdan oshgan bobolar, odatda, bog‘ qilishadi, atroflarini bo‘senga aylantirishadi. Bo‘chka-bo‘chka samogon-aroq yasab, uni qishi bilan ichish yoki qanor qopdek cho‘chqalar-u o‘nlab cho‘chqachalar bilan bir uyda yotish o‘zbekona turmush tarzimizga aslo mos kelmaydi.

Hikoya Saodat ayaning bomdod namozidan keyin Bo‘rixonga xudodan insof tilashi, baxti ochilmay, guldek umri xazon bo‘layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaganining yo‘lini och, deya Allohga iltijo qilishi bilan boshlanadi. Hikoya oxirlarida kampir o‘limidan (hali yiqilib yotib qolmasidan) avval yana bomdod namozida sajdaga bosh qo‘yishi holati tasvirlanadi. Buni ijodkor shunday tasvirlaydi: “U joynamoz burchagini qayririb, eriga atab Qur‘on tilovat qildi. Baxti chopmagan Qumriga bag‘ishlab

shu farishtaganining yo'lini och, deb Allohma iltijolar qildi. G'oyibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga ham olmadi". Shu tasvirming o'ziyoq kampir onaning yuragi o'g'li Bo'rixonga nisbatan muzga aylanganini, endi bu muz aslo erimasligini va hatto shu muz uning umriga yakun yasashimi ifodalaydi.

Yozuvchi Said Ahmad o'quvchiga bumi verbal vositalar orqali tushuntirmaydi, alohida izohlamaydi. Saodat ayaning oxirgi sajdasida "joynamoziga ko'z yoshlari tomishi" va "g'oyibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga ham olmasligi"ning o'ziyoq uning ruhiyatini kitobxonga amiq qilib qo'yadi. Ya'ni ijodkor personajning ruhiy holatini yozmay "aytadi", tushuntirmay "izohlaydi". Hikoyani o'qir ekanmiz, ijodkor til birlklari imkoniyatlardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanish, pragmatik niyatga mos ma'noni ifodalovchi vositalarni to'g'ri tanlash va qo'llash, pirovardida, muloqot maqsadiga samarali erishish kabi vazifalarini muvaffaqiyat bilan uddalay olganiga amin bo'lamiz.

**Xulosa.** Demak, muayyan matnni lingvopsixologik tahsilga tortish orqali til birlklari imkoniyatlari bilan birga muallifning subyektiv munosabati, o'quvchiga axborot yetkazish yo'sini, ongi va qalbiga ta'sir ko'rsatish kuchini aniqlash imkonini ham paydo bo'ladi. Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasida muvaqqat ma'no, ya'ni so'zning ma'no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma'lum individual qo'llanishda yuzaga chiqadigan okkozional ma'noli, ko'pma'noli hamda omonim birliklar ruhiy holat ifodasida asosiy unsur vazifalarini bajara olgan. Bu esa hikoya matni orqali anglashiladigan pragmatik axborotning mazmundor, pragmatik ma'noning ta'sirchan, pragmatik vazifaning samarali ta'minlanish omili bo'lib xizmat qila olgan.

#### ADABIYOTLAR:

1. Қаххор Абдулла. Тил ҳақида нутқ (Нашрга тайёрловчи: Кибриё Қаххорова)/ "Ёшлик" журнали, 1987 йил. 9-сон. <https://oyina.uz/kiril/article/210>
2. Қаюмов Л. Замондошлар (адабий портрет ва илмий лавҳалар, воқеий ҳикоя ва эсдаликлар). – Т.: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 368 б.
3. Ушакова Т.Н. Понятие языкового сознания и рече-мысле-языковой системы// <https://lib.ipran.ru/paper/21679007>
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Наука, 1975. – 304 с.
5. Ўзбек тилининг изоҳди луғати. 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. 5 жилдли. 5-жилд. ІІ-Х.– Т.: ЎзМЭ, 2008. – 453 б.

## MUNDARIJA

No	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
<b>SADRIDDIN AYNIY HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR</b>			
1. Абдулхаев Зоҳид Муҳаммадовиҷ	Асноди шарҳихолӣ ва осори адабии С.Айни дар нигоштаҳои шарифҷон-маҳдуми Садри Зиё		6
<b>FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI</b>			
2. Xolmurodov Abduhamid	Tarixiy haqiqat va badiiyat		16
3. Quvvatova Dilrabo Xabibovna	“Qutlug“ bir makonda gul ochdi chechak” (Shodmon Sulaymon ijodiga chizgilar)		20
4. Расулова Умида Йўлдош қизи	Фикрату Фитрату Фурқат		26
5. Boltayeva Gulchehra Shokirovna	Furqat ijodida mashrabona ohanglar		31
6. Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna	“Rohati dil” dostonida didaktik obrazlar talqini va doston vazni haqida		35
7. O‘roqova Nafosat Yoriyevna	O‘zbek mumtoz she’riyatida gullar obrazi		40
8. Maxmudova Sadoqat Xolmatovna	Jadid she’riyatida vatan mavzusi talqini		46
9. Мирзаев Хайём Тошқулович	“Рисолаи рубой” падидаи тозае дар арӯзшиносии асри XIX		53
10. Burieva Firuza Normurotovna	Mustaqillik davri she’riyatida janr-shakllarga doir an’ana va novatorliklar		60
11. Tashova Dilorom Salimovna	Istiqlol davri she’riyatida ikkilik tizimidagi badiiy shakl izlanishlari		64
12. Shukurova Bahor Boltayevna	Hikoyaning lingvopoetik xususiyatlari		69
13. Xudoyorova Gulrux Normurod qizi	Abdulla Oripov lirkasida rang va ohang sintezi orqali inson obrazining yaratilishi		73

<b>14. Xo‘jayeva Xilola Kalandarovna</b>	“Oshiq Mahmud” dostonidagi yetakchi motivlar	78
<b>15. Xojiyeva Oynisa Shabonovna</b>	O‘zbek-turk maqollarida islomiy qarashlar	83
<b>16. Imomova Ruxsora Axmedovna</b>	Jahon adabiyoti va Cho‘lpon	87
<b>17. Komilova Dildora Shavkatovna</b>	Til bilish, uni qadrlash g‘oyasi jadidlar va zamонавиј ijodkorlar talqinida	93
<b>18. Hamdamova Shamshoda Saidaxmad qizi</b>	Tohir Malik fantastikasida o‘zga sayyoralar va o‘zga sayyoraliklar talqini	103
<b>19. Ochilova Nozima Tongotarovna</b>	Anvar Obidjon she’riyatida o‘simliklar obrazining badiiy talqini	107
<b>20. Murotova Bobomirzayevna Ismigul</b>	Maktub qahramon ruhiyatini ochuvchi vosita sifatida	111

**TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI**

<b>21. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna, Hamidova Mohizoda G‘ulomovna</b>	Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasi lingvopsixologik tahlili	116
--	--	-----

<b>22. Kilichev Bayramali Ergashovich</b>	Issues of toponymy in the work “Baburnama”	121
<b>23. G‘aybullayeva Nafisa Izatullayevna</b>	Milliy qadriyatlarda “kasallik” va “salomatlik” konseptining obrazli talqini	125
<b>24. Khodjaeva Dilafruz Izatilloyevna, Ergasheva Maftuna Bayramaliyevna</b>	Lexical semantic aspects of cosmonyms in english and uzbek languages	133
<b>25. Mengliyeva Munira Baxtiyorovna</b>	Ingliz tilida aspektual ma’no ifodalovchi vositalarning leksikografik talqini	138
<b>26. Sobirova Zarnigor Raximovna</b>	Tilshunoslikda chegaralangan leksika tushunchasi va xususiyatlari	

**RETRO**Беназир устозимиздан тухфа  
(Давоми. Боши 2024 йил, 2-сонда)**QUTLOV**

146